

## **MEHMONLARNI KUTIB OLIISH**

Xorijdan kelgan mehmonlarni institut xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor, rektor vazifasini bajaruvchi Baxtiyor Teshayevich Mardonov kutib oladi.

Mehmonlarni kutib olish xarajatlari shartnomada ko'rsatilgan tarzda, xalqaro loyiha doirasida kelganda loyiha xarajatlari hisobidan, o'quv va ilmiy faoliyatga institut taklifnomasi asosida kelgan bo'lsa institut hisobidan kutib olinadi. Konferensiya va seminarlarga tashrif buyurgan bo'lsa maxsus ajratilgan xarajatlardan qoplanadi.

Tuzilgan shartnoma asosida, kelishuvlar asosida xorijiy mehmonlarning xizmat safari, sutkalik pul, transport va yashash xarajatlari bilan bog'liq xarajatlar institut hisobidan qoplab beriladi.

Xorijiy safarlarga ketadigan xodimlar, rahbarlar, tadqiqotchilar, professor-o'qituvchilar maqsadiga qarab to'lovlar amalga oshiriladi.

Turli tanlovlarda qatnashib grantlarni yutib olganlar xorijga malaka oshirish, stajirovka o'tash va konferensiya va seminarlarda qatnashish uchun barcha xarajatlari tanlov o'tkazgan tashkilot tomonidan qoplanadi.

### **2021 yilda quyidagi tarkibda mehmonlar tashrif buyurdilar**

1. 2021 yil 9 aprel kuni Finlyandiyadan Piter Vestebra, Rovio kompaniyasi direktori, Skillgrover kasb-ta'limini rivojlantirish dasturi asoschisi, Tuomas Tillikainen, Finest Future kompaniyasii ta'asischi hamkori, Pertti Korteyarvi, Oulu konchilik instituti tadqiqotchi professori, Pasi Savola, Edunation kompaniyasi ta'asischi hamkori tarkibdagi delegatsiya tashrif buyurdi. Rasmiy uchrashuv o'tkazildi. Hamkorlik memorandumini imzolandi. Institut o'quv va ilmiy laboratoriyalariga tashrif buyurdi. Hamkorlik istiqbollari kelishib olindi.

2. 2021 yil 26 iyun kuni Sankt-Peterburg davlat texnologiya instituti (texnika universiteti) delegatsiyasi: - Sherbak Oksana Yurevna - Xalqaro aloqalar bo'limi boshlig'i, p.f.n., dots.; - Taburchak Aleksey Petrovich - Iqtisod fakulteti dekani, iqt.f.d., prof. Mehmonlar tashrif buyurdi. Rasmiy uchrashuv o'tkazildi. Hamkorlik shartnomasi muhokama qilindi. Institut o'quv va ilmiy laboratoriyalariga tashrif buyurdi. Hamkorlik istiqbollari kelishib olindi.

3. 2021 yil 23 avgust kuni Frayberg universiteti professori Raxmonov Mirzohid, Frayberg universiteti talabalari Ubaydullayeva Dilnoza, Eliza Hannah Golks tashrif buyurdi. Rasmiy uchrashuv o'tkazildi. Hamkorlik shartnomasi muhokama qilindi. Institut o'quv va ilmiy laboratoriyalariga tashrif buyurdi. Hamkorlik istiqbollari kelishib olindi.

4. 2021 yil 27-28 sentabr kunlari Kolorado konchilik universiteti (Colorado School of Mines) vitse prezidenti maslahatchisi Devid Allan Rayt va Kolorado konchilik universiteti professori Jamol Rustamiy tashrif buyurdi. Rasmiy uchrashuv o'tkazildi. AQShning Toshkentdagi konsudhlligining UNICEN dasturi doirasida bajarilayotgan COIL loyihasi muhokama qilindi. Institut o'quv va ilmiy laboratoriyalariga tashrif buyurdi. Seminar treninglar, uchrashuvlar o'tkazildi. Konchilik fakulteti talabalariga mutaxassislik bo'yicha ma'ruza o'qidilar. Navoiy erkin iqtisodiy zonasiga tashrif buyurdilar.

## **Vengriya grantini qo'lgan kiritib xorijga o'qishga ketganlar**

Vengriyaning o'zbekistonliklar uchun ajratilgan grantini qo'lgan kiritib institut bitiruvchi Tojiyev Shuxrat Budapesht texnologiya va iqtisodiyot universiteti "Kompyuter fanlar muhandisligi" mutaxassisligida 1.09.2021 dan 31.07.2021 sanaga qadar 1 kurs magistraturada va institut o'qituvchisi Sayfiddinov Oxunjon Odilovich Moskolch universiteti "Mashinasozlik texnologiyasi" mutaxassisligida 2 kurs PhD doktoranturasida tahsil olmoqda. Ular bilan shartnomalar imzolangan, o'qishni tugatib institutga ishlab berish uchun qaytib keladi.

## **Xorijda stajirovkaga yuborilgan xodimlar**

2021 yil 20 sentabrdan - 11 noyabrgacha stajirovka o'tash uchun "Noyob va radioaktiv metall rudalarini qazish va qayta ishlash" assistenti Hamidov Suxrob Botir o'g'li Belarus milliy texnika universitetiga O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi grantini qo'lgan kiritib stajirovkaga jo'nab ketdi.

2021 yil 20 sentabrdan - 20 noyabrgacha stajirovka o'tash uchun "Noyob va radioaktiv metall rudalarini qazish va qayta ishlash" assistenti Avazov Rustam Raxatovich "El-yurt umidi" jamg'armasi grantini qo'lgan kiritib Sergo Ordjonikidze nomidagi Rossiya davlat geologik qidiruv universitetiga jo'nab ketdi.